

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 16 (67545)
2025-yil 21-aprel



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» TANLOV G'OLIBLARI TAQDIRLANDI



MILLIY T'IKLANISH
DEMOKRATIK PARTIYASI

2-bet



USHBU SONDA:
BOLALIK KUNLARIMDA...

AGAR BOLA
BO'LIB
QOLSAM...

4-bet

ZAMONAVIY
MAKTAB
TAJRIBASI

SAYHUNOBODLIK
MUALLIM

9-bet

15-bet

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» TANLOV G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

Xabaringiz bor, O'zbekiston Milliy tiklanish

partiyasi hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Boylikni bolalikdan asrang!» tanlovini e'lon qilgan edik. Kuni kecha O'zbekiston Milliy tiklanish partiyasi Markaziy Kengashi binosida mazkur tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



– Tanloving «Maqola» yo'nali shida 1-o'rinni egallaganimni tahririyatdan qo'ng'iroq orqali aytishganida, to'g'risi, qulqlarimga ishonmadim, – deydi Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi o'quvchisi Azizbek Shaymirzayev.

– «Sukkelent» fantastik hikoyam hay'at a'zolari tomonidan yuskak baholanganidan boshim osmonga yetdi!

– Bugun men uchun eng quvonarli kun! Tanlovdan 2-o'rinni oldim. Tadbir bahona Respublikamizning turli viloyatlardan kelgan ijodkor tengdoshlarim bilan tanishishga tuyassar bo'ldim!

– deydi Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 2-umumta'limga yetdi!

maktabining 10-sinf o'quvchisi Jasmina Ismoiljonova.

Tadbir doirasida ekologik vazyatni barqarorlashtirishda «Yashil maydon» umummilliy loyihasi, «Yashil bog'lar», «Yashil jamoat parklari», «Yashil qalqon» va «Yashil qoplama» himoya o'rmonzorlarini tashkil etish, ota-bobolarimiz udumi – yurtimizni ko'kalamzorlashtirish, bahor oylarida daraxt ekish odatini ommalashtirish, targ'ib etish maqsadida «Men ko'chat o'tqazaman» aksiyasi tashkillashtirildi. Ahamiyatlisi, tanlov g'oliblarining har biri mevali daraxt ko'chatlari ekdi.





«Buyuk ajdodlarga munosib avlodlar» tanloviga

Yorug' yo'l ko'satuvchi nur

Tarix – bu qog'ozga bitilgan quruq faktlar emas. Tarix yurakda yonib turgan olov, qalbga ildiz otgan g'ururdir. Biz yashab turgan bu zamin – buyuklar iziga to'la tuproq.

Amir Temur – o'z nomi bilan tarixni o'zgartirgan shaxs. U faqat buyuk sarkarda emas, balki adolatli hukmdor, dono islohotchi edi. Uning «Temur tuzuklari»da yozilgan fikrlari bugun ham biz – yoshlar uchun yuksak hayot maktabi bo'la oladi. G'ulom Shomurodov Temur haqidagi satrlarida yozadi:

**«Jahon loi qoldi sening salobatingga,
Adolat bo'ldi davlat
hayotingga...».**

U minglab yuraklarga jasorat ulashgan, ming yillab boshlarni tik tutib yashashga o'rgatgan. Bu misralar bizga shuni eslatadiki, buyuklik faqat qudratda emas – adolat, halollik va yurakka yaqinlikda bo'ladi.

Ibn Sino esa ilm-fan osmonida porlagan yulduz. U tibbiyot, falsafa, matematika va musiqa kabi sohalarda asrlar davomida unutilmas iz qoldirgan. «Buyuk-

lar qadri»da Ibn Sinoning ilmga bo'lgan sadoqati shunday tasvirlanadi:

**«Har bir sahifang –
dardga davo bo'ldi,
Qalaming tilda –
umid nido bo'ldi».**

Ibn Sino bilimni dardlarga malham, so'zini esa qalblarga nur qilib bitgan. U kitob sahifalariga hayot nafasini bergan. Uning hayoti bizga bir haqiqatni eslatadi: ilm va sabr bilan inson imkonsizdek tuyulgan yutuqlarga erishishi mumkin.

Ajdodlarimiz yurtni qudratli qilgan, biz esa uni taraqqiyotga yetaklovchi bo'lishimiz kerak. Shunda biz ularning ishonchini oqlagan bo'lamiz. Har bir yaxshi amalimiz ularning nomiga bitilgan yangi sahfadir.

Tarixning mo'jaz yelkalari ustida bugunning yelkani hilpiraydi. Keling, bu yelkanni munosib tutaylik!



Maktabimizda Muhammad Yusuf tavalludiga atab «Dovrug'i dunyoga doston o'zbekman» tadbiri o'tkazildi. Ustoz Iroda Mah-kamova boshchiligidagi kechgan tadbirda 3-«B» sinf o'quvchilari shoir she'rlaridan yod o'qishdi. Qo'shiq kuylab, raqsga tushishdi. Ajoyib sahna ko'rinishi barchaga manzur bo'ldi.

Shoira Nazira as-Salom tuhfa etgan kitoblar maktab kutubxonasini boyitdi.

**Farzona BAHODIROVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim
maktabining 7-«E» sinf o'quvchisi**



**Asal RAJABOVA,
Xorazm viloyati, Shovot
tumanidagi 42-umumta'lim
maktabining 11-sinf o'quvchisi**



AGAR BOLA BO'LIB QOLSAM...

*Sahifamizning
bu galgi mehmoni – O'zbekiston
Milliy axborot agentligi Bosh direktori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist, Yoshlar murabbiyi
Abdusaid KO'CHIMOV.*

1951-yilning 15-mayida Samarqand viloyatining Urgut tumanida tug'ilgan. Poytaxtdagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet)ning o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan. Mehnat faoliyatini 1972-yilda «O'qituvchi» nashriyotida korrektor – musahihlikdan boshlagan. Keyin bolalar gazetasi hozirgi «Tong yulduzi»ga ishga o'tadi. Bo'lim mudiri, mas'ul kotib, 1987–91-yillari esa Bosh muharrir bo'ldi. 1991–92-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rais o'rinosi, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida madaniyat, axborot va turizm bo'limi mudiri, 1992–1996-yillarda O'zbekiston teleradiokompaniyasi raisining o'rinosi, 1996–1997-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonida Axborot markazi rabbasi, 1997–2005-yillarda O'zbekiston teleradiokompaniyasi raisi, «Toshkent» teleradiokanalni Bosh direktori vazifalarida xizmat qildi. 2017-yildan buyon O'zbekiston Milliy axborot agentligi Bosh direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Abdusaid Ko'chimovning birinchi kitobi – «Kashfiyotchi bolalar» 1978-yili chop etilgan edi. O'tgan yillar davomida adibning «Mening O'zbekistonim», «Toshburgut», «Mening yulduzim» va «Ko'zlarimning qarog'idasan» kabi 20 dan ortiq publitsistik, she'riy va nasriy kitoblari chop etildi. Yozuvchi tatar adibi M. Xarisovning «Qizil sayyoraga sayohat» nomli qissasini o'zbek tiliga o'girib, kitobxonarga taqdim qildi. Adibning «Baland tog'lar» qissasi va «Boychechak» hikoyasi asosida ko'p qismli badiiy filmlar yaratildi. «Halqa» va «Hayot hukmi» nomli kitoblari Xitoy Xalq Respublikasida nashr etilgan. Bir qancha hikoya, qissa va she'rlari rus, ukrain, moldovan, turk va boshqa jahon tillariga tarjima qilin-gan. Tabiatni asrab-avaylash mavzusidagi asarlari uchun Xalqaro YUNESKO mukofoti, «Halqa» kito-

bi uchun G'afur G'ulom nomidagi mukofot bilan taqdirlangan.

– Hayotda maktab vazifasini o'tovchi omillar bo'ladi: maktab, universitet, ish jarayoni va oila kabi. Inson rivojlanishi, o'sishi, hayotda o'z o'rnnini topishida yuqoridagi maktablar muhim rol o'ynaydi. «Tong yulduzi» gazetasi ham mening maktablarimdan biri. Men u bilan hali ishga kelmasimdan ko'p yillar burun, bolalik paytlarimda do'stlashganman. Yodimda, 5–6-sinfda o'qiyotgan paytlarimda olis qishlog'imdan gazetaga maqolalar jo'natardim. Yozganlarimga javob xati kelganida, rosa xursand bo'lганman.

U paytlar har bir sinfning o'z devoriy gazetasi bo'lardi. Uni o'quvchilarining o'zlari rangli qalamlar yordamida tayyorlardi. Gazetada o'quvchilar yozgan she'rlar, maqolalar berilardi.

Gazeta tez-tez yangilanib turardi.

O'qish, o'qitish jarayonlari tubdan o'zgacha edi. O'qish bilan ish, ya'ni mehnat uyqash tarzda olib borilardi. Biz metallolom yig'ardik, makulatura to'plardik, tumanimizda tamaki yetishtirilgani bois, tamaki ekish, sug'orish, ishlov berish, yetilgan tamaki barglarini uzish va tizish jarayonlarida kattalar bilan yonna-yon turib ishlardik. Otamiz bizni hali xo'roz qich-qirmay uyg'otardi. G'ira-shirada eshakni aravaga qo'shib, dalaga

o'qish choralarini ko'rardik. Kim nima desa desin, ammo qat-tiqqo'llik kerak bola tarbiyasida. Bola qynalib, tirishib-tirmashib harakat qilmasa, erta katta bo'lganda, mo'rt bo'lib qolajagini anglamog'i lozim. Men – meni koyigan, qulog'imdan cho'zgan muallimlarimga umrbod qulluq qilaman. Biz o'qirdik, ishlardik, o'ynardik. «Yashinma – qoch», «Suyak otar», «Chillak», «Lanka», «Eshak mindi»... o'yin o'ynab mol boqardik, eshakda ko'pkari, rezina koptoklarda futbol o'ynardik... Shular haqi-

Shu tariqa maktab yillarimiz o'tib, katta orzular bilan Toshkentga yo'l oldik. U paytlarda jurnalistikaga kirish uchun, al-batta, gazetada maqolalaringiz chiqqan bo'lishi, keyin kamida bir-ikki ijodiy tashkilotdan yo'llanma olinishi shart edi. Qo'lting'ilda albom to'la maqolalar bilan Toshkentga keldim. O'zimga ishonchim komil edi, ammo... Chet tilini bilmasligim pand berdi. Maktabimizda bir yili ingliz, boshqa yili nemis, keyin fransuz tillari o'qitilgani uchun hammasi chala edi.

O'qituvchi zoti taqchil edi u paytalar.

Xullas, 3 ta imti-hondan o'tib, chet tilidan yiqildim. Uyga qaytib borishga betim chidamadi. Keyingi yil Nizomiya top-shirdim. U yerda esa ball yetmay, kechkiga kirdim. Bir yil kechki-da o'qidim va ikkinchi kursda kunduzgiga o'tdim.

Maktabda maqola yoza boshlagan paytimda yozuvchiga pul berilishini bilmas edim. Bir kuni pochtachi keldi-da, qo'limga to'rtbur-

chak qog'oz berib, «Mana, sen yozgan maqolang uchun «Izvesheniye», dedi. Qog'ozga qarab turib, bu nima, dedim. Shunda u: «Bu qog'ozni pochtaga olib borasan, ko'rsatasan, senga pul berishadi», dedi. Birinchi olgan gonorarim shu edi. O'shanda 6-sinf edim. 44 tiyinga bir dasta daftar oldim. Uydagilar xursand.

Bolalikni nima uchun odam yaxshi ko'radi, nimaga odam bolalik degan so'zni eshitsa,



Ustozlar davrasida.

jo'nardik va maktab vaqtigacha bir eshak-arava bargni uzib kelardik. Apil-tapil yarim kosa sutni ichib, papkaga yarimta non bo'lagini solib, darsga chopardik. Kech qolsak, o'qituvchilar aymasdi – qulog'imizdan cho'zar, sinf burchagiga turg'izib qo'yar, ba'zan quloq-chakkamizga shapaloq tortish hollari ham bo'lardi. Yig'ilamasdik, shikoyat qilmasdik, melisaga chopmasdik haq-huquq talab qilib. Aksincha, darsga kech qolmaslik, yaxshi

da nimalardir yozgim kelardi. Lampa-chiroq (elektr keyinroq kelgan qishlog'imizga) yorug'ida ko'p daftarlarni to'ldirganman. Keyin-keyin ayrimlarini tuman gazetasiga yubordim konvertga solib. Bir nechta javob keldi va nihoyat, bitta xabarim bosilib chiqdi. 44 tiyin qalam haqi oldim. 7-sinfdan tuman gazetasi qoshidagi «Chashma» to'garagiga qatnadim. Tuman, viloyat gazetalarida maqolalarim chiga boshladи.


yayrab ketadi? Chunki inson ulg'aygani, atrofida tanishlari ortgani sayin dunyoqarashi ham kengayib boraveradi. Yelkasidagi yuk ham og'irlashadi va bolalikdagi beg'uborlik go'zal sog'inchga aylanaveradi. Qishloq bolalari bilan shaharlik bolalarning yer bilan osmoncha farqi bor. O'z bolaligimni nabiralarimning bolaligi bilan taqqoslaydigan bo'lsam... Bular dalada yurishni, ketmon chospishni, pichan o'rishni bilmaydi. Bu ishlar bir chetda tursin, hatto o'roq degan matoh o'zi nima, desangiz, yelka qisib turaveradi. Albatta, ayb ularda emas, hayot bu. Bizning qishloqda hech kimda bo'sh vaqt bo'lmasi, hamma mehnat bilan band edi. Hatto ish mavsumi bo'lgan yozda to'y o'tmasdi, to'ylar qishda – hamma bo'sh bo'lqanda o'tkazilar edi. To'ya kelgan mehmonlar ot-eshaklarini bizga o'xshagan bolalarga berib qo'yishardi. Ular «qulluq bo'lsin» qilib chiqquncha, biz mehmonlarning ulovida ko'pkari o'ynardik, choptirardik, mazza qilib minardik. Mehmonlar qishloqdagilarning uylariga taqsimlanardi – ular bir kecha tunab, ertasi kuni ketishardi.

Otam qattiqqo'l edilar, buning o'ziga yarasha sababi bor. U kishining bolaligi og'ir kechgan. Yetimlikda o'sgan, og'ir mehnat ostida ulg'aygan. Otamiz bizni ham mehnatda pishishimizni istaganlar. Otamning jonkyarligi va talabchanligi bizga juda katta o'rnak bo'lgan. Otam bilan baravar ketmon chopib, o'roq o'rardik, aka-uka g'isht quyardik. Mehnatda chiniqdik, toplandik. Keyinchalik hayotda qandaydir to'siq yoki muammoga duch kelsam, oldingilari esimga tushadi, ularning oldida,

bu nima, deb o'zimga o'zim dalda beraman.

Bolalik davri o'ziga xos go'zal o'yinlari bilan xotirada qoladi. Misol uchun, oddiy

bir-birini tushunishga, bir-biri bilan yanada yaqin do'stlashishga o'rgatadi, dunyoqarashini tarbiyalaydi. Erta bahorda «boychechak» aytish... Ajib



Baxtli oila.

«Lanka»ni olaylik. Uni o'ynash tugul, tayyorlashning o'zi ham alohida mahorat talab qiladi. Yaxshi o'ynardim. Bir tepishda 50 tagacha tepardik. Yoki varrak yasash. Biz varrakni yelim yordamida emas, balki daraxtda yopishib turadigan tabiiy yelim bilan yasar edik. Shunga bog'liq qiziq bir voqeani aytay. Qachondir bir kishi juda katta varrak yasagan va kichik fonus bog'lab uchirgan. Uni ko'rgan qo'shni qishloqdagilarning ba'zilari qochgan, ba'zilari qo'rqib qochayotganlarni ko'rib, mazza qilib kulgan. Shu kabi o'yinlar ko'rinishdan oddiydek esa-da, ular bolalarni chaqqonlikka,

damlar edi. Keksalar – bobo-yu buvilar ko'klamning bu chechagini ko'zlariga surtishardi, shu kunlarga yetganimizga shukur, derdilar. Nazarimda, u paytlar hamma narsa, hattoki o'yinlar ham bolalarni jismonan, ham ma'nан rivojlanishiga yordam berardi. Hozir esa bolalarning ko'pi telefon bilan ovora. Ijtimoiy tarmoqlarda 60 yoshli insonga ham, 10 yoshli bolaga ham bir xil kontent havola etilyapti. Shuning uchun bolalarni iloji boricha telefondan to'g'ri foydalanishga o'rgatish kerak.

Bolaligimizda «Tarzan» degan film juda mashhur edi. Men shu filmdan ilhomlanib,

bog'imizdagi yong'oq daraxti shoxlari orasiga uycha yasa-ganman. Tok novdalari bilan atrofini o'radim, somon to'sha-

joylashganligiga qaramay, be-malol, cho'chimay yotaman. Bir oqshom mundoq qarasam, o'choqda olov yonyapti, daraxt

dilar va o'choqdagi kulni olib, atrofga sochib yubordi. Kuli qolgan o'choqqa shayton keladi, dedi. O'sha kecha Umir bobo bilan birga uxladim...

Suhbatimiz adog'ida gazet-xonlarga bir narsani ta'kidlashni istardim: bolaligimizda «Tong yulduzi» eng sevimli gazetamiz, yostig'imiz ostida avaylab-asray-digan, o'rtoqlarimiz, aka-opalarimiz bilan talashib-tortishib o'qiydigan sirlar makoni edi. Sizga ham bolalar qalbining tarjimoni bo'lgan bu gazetadan ajralmang. U sizni ota-onangiz, Vatanningiz orzu qilgan barkamol inson bo'lib yetishishingiz yo'lida mayoq bo'ladi, degim keladi. Ammo bugun gazetaga obuna bo'lish va o'qish hammaga ham yoqavermasligini yaxshi bilaman. Bilaman-u, ammo mo'jiza ro'y berib, bola bo'lib qolgudek bo'lsam, yana o'ylab o'tirmay har kungi hayotimni gazeta o'qishdan boshlagan bo'lar edim...

**Feruza SOYIBJON qizi
yozib oldi.**



Nashrning yangi soni chiqqanda...

dim, bog'imizda ilon ko'pligi uchun daraxtning tanasiga ilon chiqolmasin, deb salidor moyi-dan surtdim. Tepamda fonus. Tun. Atrof zim-ziyo. Kechalari bog'ni qo'riqlab yotaman. Bog' uyimizdan 5-6 kilometr narida

bo'yi olov. Bir necha qizlar olov ichida raqs tushayapti. Ko'zla-rimga ishonmayman, bir mahal uyg'onib ketdim – tush ekan. Shunda o'rnimidan turib, Umir bobo, deya bog' qo'shnimizni chaqirdim. Bobo halloslab kel-



Adib o'quvchilar davrasida.

Qo'ng'irot tumani «Barkamol avlod» bolalar məktəbida aynı kunda 7 yo'nalish bo'yicha 76 ta to'garak faoliyat yuritmoqda. Ushbu to'garaklarda 2490 nafar o'quvchi qamrab olingen bo'lib, tarmoq to'garaklarda, 22 ta umumta'lim məktəblarında 1507 ta o'quvchi kasb-hunar o'rganishmoqda.

Ta'lim maskaniga borganimizda, o'zimizni amaliy san'at muzeyida bo'lgandek his qildik. Negaki, bino yo'laklaridan tortib, har bir xona o'quvchilarning qo'l mehnati bilan yasalgan jihozlar bilan bezatilgan.

Məktəb direktori Munira Matmuratova bizni har bir to'garak bilan tanıştırarkan, hayratımız yanada ortdi. Qoraqalpoqlıklärning milliy liboslari namoyish etilgan xonada har birimiz bosh kiyimlarini kiygancha suratga tushishga oshiqdik...



«BARAKALLA, ARKAMOL AVLOD» OLALARI!»

O'tgan davr mobaynida maskan o'quvchilari ning qo'lga kiritgan yutuqlari talaygina. Bolalarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Iqtidorli bolalar Kengashi sardori U. Maqsetov «Robotlar olamiga sayohat» nomli davra suhbatini tashkillashtirdi. Shuningdek, 10-sonli Esemurat jirash musiqa məktəbi xodimlari bilan tuzilgan hamkorlik memorandumi asosida «Hunarmandchilik va qo'l mehnati» yo'nalishi bo'yicha

seminar-trening tashkil etildi. «Ijodkor bolalar» oyligi doirasida «Robototexnika va konstrukturlik» to'garagi a'zolari o'rtasida «Robotlar jangi» ko'rik-tanloving tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

O'tgan yili «Barkamol avlod bolalari» festivalining Respublika bosqichida shaxmat to'garak a'zosi M. Majitov II darajali diplom bilan taqdirlandi. Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan robototexnika bo'yicha «Detalka-2024» musobaqasida «Robototexnika» jamoasi onlayn qatnashib, 1-o'rinni egallahadi. «Kashtachilik»

to'garak a'zosi Sevara Adiljanova «Language learning» tanloving Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida 1-o'rinni egallab, I darajali diplom bilan taqdirlandi va O'zbekiston Respublikasi bosqichiga yo'llanma oldi.

«Kashtachilik» to'garak a'zosi Sevara Adiljanova Andijon shahrida bo'lib o'tgan «Language learning» tanloving mamlakat bosqichida faxrlı o'rinni egalladi.

Mental arifmetika bo'yicha o'tkazilgan ochiq olimpiadada Jasmina Saparbayeva oliy o'rinni egallab, Qozog'iston, Qirg'iziston, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiyada bo'lib o'tadigan olimpiadalarda ishtirok etish imkonini qo'lga kiritdi.



O'z muxbirimiz

ZAMONAVIY MAK TAB TAJRIBASI

Davlatimiz rahbari joriy yilning

20-mart kuni poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 358-umumta'lim maktabiga tashrifi chog'ida unda yaratilgan sharoitlar ta'limga qaratilayotgan e'tiborning yorqin ifodasi ekanligini ta'kidladi va ushbu tajribani barcha ta'lim muassasalariga tatbiq etish yuzasidan tegishli tavsiyalar berdi.

Shu munosabat bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tizimdagi barcha hududiy bo'linmalarining Tarbiyaviy ishlar bo'yicha mas'ullari ishtirokida 358-umumta'lim maktabida seminar-trening tashkil etildi. Tadbir doirasida ishtirokchilar maktabdagi sinf xonalari, robototexnika to'garagi, kutubxona, laboratoriya, psixolog, logoped xonalari, sport zali, futbol maydonlari bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni vatan-parvarlik ruhida tarbiyalash va xorijiy tillarni o'qitishdagi tajribasi haqida batafsil ma'lumot berildi. Bundan tashqari, «Turon» maktab teatri jamoasi tomonidan sahna ko'rinishlari ham namoyish etildi.

Sirdaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

boshlig'i o'rinnbosari Davron Isakov quyidagilarni so'zladidi: «Bu maktabni «Kelajak maktabi», deyish mumkin. Maktab

tayyorlashga harakat qilamiz va buning uchun bizda ham barcha sharoitlar yetarli, deb o'ylayman».



inklyuziv ta'limga ham bog'langan ekan. Ular uchun alohida imkoniyatlar yaratilgan. Bugunoq borib hamkasblar bilan maslahatlashib, ushbu tajribani amalga oshirish uchun yo'l xaritasini tuzamiz va yil yakuniga qadar bir maktabni mana shunday imkoniyatlarga ega holatda

– Seminar bahonasida Davlatimiz rahbari tashrif buyurgan ushbu maktab faoliyati bilan batafsil tanishdik, – dedi Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida tarbiyaviy ishlar bo'yicha mutaxassis Shavkat Asriddinov. – Albatta, maktabda yaratilgan sharoit va imkoniyatlarga havasimiz keldi. Shu bilan birga, pedagoglar ham bugun tashabbuskor, izlanuvchan, o'z kasbining fidoyisi bo'lmog'i kerakligini zamonning o'zi ko'rsatmoqda.

Seminar-trening davomida «Tong yulduzi» gazetasi bilan faol hamkorlik qilib kelayotgan viloyat vakillariga «Tong yulduzi» yoritgan olam» kitobi va esdalik sovg'alari topshirildi.

Azizbek ABDUMALIKOV





BILIM – OFTOB

Bola borki, sersavol,
Savoli qoldirar lol,
Tezda javob bermasang,
Sendan arazlar darhol.

Kelar barin bilgisi,
Yo'q oldingdan jilgisi,
Shaffof – toza ko'ngilning
Sof – musaffo kulgisi.

Bilimga tashna, chanqoq,
Tez aytish hamda sanoq,
Bahslari o'tar qizg'in,
Barisi ahil, inoq.

Ustoz der, bilim – oftob,
Demang, bu oddiy xitob,
Dildan anglab bolalar,
Timmay o'qirlar kitob!..

ZOOLOGIYA DARSIDA

Mana bu sher, bunisi yo'lbars,
Yonidagi suratda – qoplon.
Qo'chqor, senga aytypaman, birpas
Jim o'tirgin, qilmay to'polon.

«O'quvchilar, bilingiz bo'ri,
To'qli, darsga xalaqt berma.
U dorisa chorvaning sho'ri,
Qurir hatto butun mol ferma.

Parrandalar shohini hech kim,
Bilmasligi axir bu uyat!..
Shunqor, Lochin, nega sizlar jim?
Qani, Burgutali, o'zing ayt...

Yovvoyimi yoki uy hayvon...
Bo'riboy, Qo'zijon, tinch o'tir,
Bo'ysundirar barini inson,
Odam shunday har ishga qodir.

Xayollari chuvalib ketar,
Jaranglaydi qo'ng'iroq shu on.
Bir nimalar ko'nglidan o'tar,
Yurar ekan eshikka tomon.

PISHGAN G'ISHT

Bir tomchi suvdek o'xshash,
Judadam qiyin farqlash.
Ularga eng mos timsol,
Bo'lar chumoli misol.

Saqlashib qat'iy tartib,
Kelar ular saf tortib.
Yerga tushib ketsa ham,
Sinmas, biram mustahkam.

Birin-ketin ergashib,
Kelaverar mingashib.
Suvda erib ketmaydi,
Ulsiz uy bitmaydi.

Ha, rangi biroz qizg'ish,
Juda qattiq o'tmas tish.
Jumboqning nomin aytay, eshit,
Uning ismi pishgan g'isht.

SUHBAT

Bolam, gaplarimga qulq os,
Odobsizlik qilmasang buncha.
Astagine menga aytsang bas,
Tiling bor-ku!
Qo'ling cho'zguncha?

– Oyi, aslo emasman tixir,
Uzatishga majburman qo'lim.
Savatdagi mevaga axir,
Nima qilay yetmasa tilim?

DO'L

Qo'zichog'-u uloqcha,
O'tlar edi dalada.
Donasi naq yong'oqcha,
Do'l yog'di tush pallada.

Yugurishdi panaga,
Hamma yer: suv, ko'l bo'ldi.
Yetguncha molxonaga,
Ust-boshlari ho'l bo'ldi.



SOAT

Tinim bilmas bir joyda,
Ko'zlamas aslo foyda,
Kapkirlari shaylangan,
Ammo ipsiz boylangan.

Sonlarni u birma-bir,
Sanab aslo tolmaydi.
Yugursa hamki g'ir-g'ir,
Joyidan qo'zg'olmaydi.

Harakat chaqqon, ravon,
Ammo mo'l unda toqat.
Nima, deb bo'l mang hayron,
Uning nomidir soat.



USTOZIMNI YAXSHI KO'RAMAN

Faxrimizga aylanib qolgan,
Har danakdan nihol undirgan,
Dilimizga mehr yog'dirgan,
Ustozimni yaxshi ko'raman.

Bizlardan yo'q boshqa tashvishi,
O'qitmoq va o'rgatmoq ishi.
Ruh beradi doim olqishi,
Ustozimni yaxshi ko'raman.

Qalbiga ozordir xatoyim,
Sha'niga misralar bitayin,
Ustozimdek ustozi bo'laiyin,
Ustozimni yaxshi ko'raman.

Tilimdamas, mehrim dilimda,
O'gitlari hamroh yo'linda,
Uning mehri doim dilimda,
Ustozimni yaxshi ko'raman.

Ruxshona ALIJONOVA,
Navoiy shahar, 16-AFCHO'IM 9-sinf
o'quvchisi



ULG'AYISH

Ko'zimni yumdim-u ortga qaradim,
Shuncha yil bir zumda o'tib ketibdi.
Bolalik yillarim ortidan quvib,
Yoshlik gulzoriga yetib kelibdi.

Yiqilib tushsam gar, qizalog'im, deb,
Opichlab, erkalab qo'yar edingiz siz.
Shundan xursand edim, chopib-chopqillab,
O'zimni dunyoga tenglar edingiz.

Men bugun ulg'aydim, ulg'aydim, dada,
Go'yo samolarni qucha olaman.
Ishoning, yonimda bo'lsangiz agar,
Dunyoda eng baxtli farzand bo'laman!

Dilobar QARSHIYEVA,
Chirchiq shahridagi 13-umumta'ilim
mektebinining 10-sinf o'quvchisi

Ingliz tilini o'rganamiz!

Lesson 16

Let's learn English!

SMALL ACTIONS, BIG IMPACT

We all live on one beautiful planet – Earth. It gives us air to breathe, water to drink, food to eat, and a safe place to live. But our Earth is getting sick. The air is becoming dirty, forests are disappearing, animals are losing their homes, and the weather is changing. This is called climate change, and it affects all of us – even children. Even small actions by kids and teenagers can make a big difference. Here are some simple ways to protect our planet:

1. Save water and electricity.

Water is life. Don't waste it!

- Turn off the tap while brushing your teeth.
- Take shorter showers.
- Don't leave lights or electronics on when you're not using them. Saving water and energy helps nature and reduces pollution.

2. Reduce, reuse, recycle.

Every time we throw something away, it goes to a landfill or pollutes nature. But we can change that!

- Reduce: buy only what you need.
- Reuse: use items again instead of throwing them away.
- Recycle: paper, plastic, glass, and metal can be recycled into new things. You can also use reusable water bottles, lunch boxes, and cloth bags instead of plastic.

3. Plant more trees.

Trees clean the air and give us oxygen. They also provide homes for birds and animals.

You can:

- Plant a tree in your school-yard or garden.

- Help water and protect trees in your neighborhood.
- Celebrate Earth Day (April 22) by planting something green.



4. Clean up the environment.

Do you see trash on the ground? Be a hero!

- Pick up litter and put it in bins.
- Join a clean-up day at your school or in your community.
- Remind your friends: «Don't litter».

5. Learn and inspire others.

The more you learn, the more you can help.

- Read books and watch videos about nature.
- Ask your teachers or parents questions.
- Share what you know with friends and family.

The Earth is our only home. We must take care of it like we take care of someone we love. Every small action counts. So let's all be Earth protectors – today and every day.

Prepared by
Mamura GULOMOVA



**Aziz YOQUBOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist**

(Davomi. Boshi avvalgi sonlarda)

3-bo'lim

UNDA YASHASH OG'IR EDI...

1942-yil yoz payti. Urush ketayapti. Urush – bu g'am, tashvish. Kimning otasi, kimning o'g'li, kimningdir jigari urushda. Urushda bo'lganlardan kamdan kam xat kelardi. Hamma xat kelgan uyga yugurardi. Otam yo akam haqida biror gap eshitarmikanman, deb o'yildi. Xatda urushni boshlagan fashistlar chekinishyapti, biz ularning adabini beryapmiz, albatta, g'alaba qilamiz, hammamiz sog' bo'laylik, degan gaplar bo'lardi. Yig'ilganlar, bizlarga ham shunaqa xatlar kelsin, degan orzu bilan tarqalishardi.

Yashash og'ir edi. Biz bolalar o'ynab-kulib yurolmasdik. Uydagi g'am, tashvish ham bizlarga ta'sir qilardi. Shu tufayli bizlar ham xuddi kattalarga o'xshab tashvish girdobiga botib yurardik. Otam Chiznakda yerto'lada ishlab, zax oldirib, shishib olamdan o'tgandi. Bu voqeа 1942-yilning oxiri 1943-yil boshlanishida ro'y bergandi. Butun tashvish onamning yelkasiga tushgan. Beshta bolani boqish o'zi bo'ladi?! Oyimning akalarini o'g'li Abduxalil aka, oyimning ukalari Abdumalik aka onamga yordam berib turishgan. Oyim juda dono bo'lgan. Bolalarini qandoq bo'lmasin, boqishni o'ylab yurardi.

Bir kuni oyim atrofimizdagi pastguzarda bo'lib, o'sha yerda ko'mir sotayotgan xotin bilan tanishib

gaplashibdi. U xotin, Qo'yliq tomondagi temiryo'l yoqasida ko'mir sotadigan joy bor, men har kuni o'sha yerdan ko'mirni aravachaga solib, olib kelib paqirchamga solib sotaman. Xohlasangiz, men bilan yuring. Shunaqa qilsangizlar, och qolmaysizlar, dedi. Oyim ham boraman, deb rozi bo'libdi.

– Oyi, men ham siz bilan boray, – dedim.

– O'g'lim, men oldin borib kelay. Keyin aytarman.

Ertasiga ertalab uyg'onsam, oyim ketib bo'libdi. Tushga yaqin oyim ikki xalta ko'mirni ko'tarib keldi. O'sha orada opam navbatda turib oladigan ikki kilo nonni olib keldi. Qumg'onda choy qaynatib, ichib oldik. Hujrada kichik paqirlar bor edi. Ularga ko'mir solib, pastguzarga qayta-qayta olib chiqib sotib



URUSH BOLALARI

keldik. Oyim bechora qo'llariga mo'l pul tushgandan xursand bo'lib, Xudoga shukur, endi bemalol yashaymiz, dedi. Ertasiga oyim, opam va men uchalamiz xalta-xalta ko'mir olib kelib sotadigan bo'ldik. O'sha kunlari navbatda turib oladigan nonlarimizni qo'shnimizni qizi Shodiya olib kelib berdi. Shunaqa qilib, o'zimizni tutib olib, har holda och qolmaydigan, tuzuk yashaydigan bo'lib qolganmiz.

Bir kuni men oyimga:

– Yodgor degan o'rtog'im bizlarni xaltalarga narsa solib kelayotganimizni ko'rib, menda kichkina uch-to'rt xalta yuk ko'taradigan rezina g'il-dirakli aravacham bor, shuni sizlarga beraman, u anchadan beri bekor yotibdi, dedi.

Oyim xursand bo'ldi. Shu orada Yodgor aravachani sudrab kelib qoldi. Oyim aravachani ko'rib, suyunib kulib qo'ydi. Shu bilan ko'mir tashish juda yengil va oson bo'ldi.

Kunlar ketidan kunlar o'taverdi. Bir kuni men ko'chaga chiqsam, ikkita yigit yonimga kelib:

– Biz novvoymiz. Shu ko'chada kimnikida tandir o'rnatsak bo'ladi? Shunaqa joyni qidirib yuribmiz. Uydagilardan bir so'rab ko'r, deyishdi. Men oyimga aytdim. Oyim ko'chaga chiqib, yigitlar bilan so'rashib:

– Bu yoqqa kirib ko'ringlar, – dedi. Yigitlar kirib ko'rib, yaxshi, ertaga tandir va kerakli narsalarni olib kelib ishni boshlaymiz. Sizlarni ham xafa qilmay, yopgan nonlar bilan ta'minlab, vaqtida ijara haqini berib turamiz, deb chiqib ketishdi.

Ertasiga ikkala yigit ot-arava bilan kelib, tandirni hujraga olib kirib qo'yishdi. Keyin o'rnatiladigan

(Ikkinchi jahon urushi davridagi dahshatli hayot qatrалари)



joyni tanlab, loy qilib, g'isht bilan ko'tarishdi, tandir o'rnatildi. Ustini suvab, ichini tekislab, past olov yoqib qo'yib, tegmanglar, ertaga kelib ishni boshlaymiz, deb ketishdi. Ertasiga kelishmadi. Ikki kundan keyin kelib, tog'amiz bozorga yaqin joy topib, tandirni o'rnatib qo'yibdi, bu yerdagi tandir bormi, o'tin, ko'mirlar sizlarga savob uchun berdik, deb xayrashib ketishdi.

O'sha paytlarda jangda qatnashayotganlardan xat-xabarlar kelishi qiyin edi. Jang maydonlari doim o'zgarib borgani uchun yuborilgan xatlar ham o'z egasiga tegmay, sarson bo'lib ketardi.

Bir kuni men maktabdan kelsam, oyim menga:

– G'ayrat o'rtog'ingni otasi urushga ketayotgan ekan. Onasi Oliyaxon shunaqa deb qoldi. U meni qadrdon dugonam. Bechora yig'lab o'tiribdi. Uni ham to'rtta bolasi bor. Men unga: «Boshimizda shunaqa kulfatlari kunlar bor ekan. Hozir hamma-

mizza ahvol og'ir, boshqa ilojimiz yo'q», deya yupatdim. Uni ko'rib o'zim yig'lab yubordim.

– Oyi, qo'ying, xafa bo'lman. Odamlar urush yaqinda tamom bo'ladi, deyishyapti. Men yugurib G'ayrat o'rtog'imni oldiga chiqib kelay, boyta maktabda o'ynab-kulib yuruvdi.

Oyim menga:

– O'g'lim, tezroq chiqib kelaqol. Hozir hech kimni yolg'iz qoldirib bo'lmaydi. Fashist yer yutgur o'lisin. Bu yaramas qonxo'r qayoqdan paydo bo'ldi? Bu basharang qurg'urlar qancha oilalarni qirib tashladi.

– Oyi, armiyamiz kuchli. Ular fashistlarni yanchib tashlashadi.

– Ilohim aytganin kelsin. Xalq ezilib ketyapti.

Men tezda G'ayratni oldiga chiqib keldim.

– Oyi, ular vokzalga kuzatgani borishar ekan. Men ham ular bilan birga boray?

– Mayli, boraqol, bolam, – dedi oyim. Men ko'chaga chiqsam, ular ketdik, deb turishgan edi. Nariroqda turadigan Eshmat tog'a ot-aravasini olib keldi. – Qani, o'tiringlar, men sizlarni ot-aravamda olib borib qo'yaman.

Hammamiz aravaga tushdik. Eshmat tog'a tezda bizni vokzalga yetkazib qo'ydi. Aravadan tushib vokzalga qizil vagonlar turgan tomonga bordik. Bu yerda kuzatuvchilar to'lib ketgan edi. Birozdan keyin harbiy kishi qo'lidagi kitob-daf-targa qarab urushga ketayotganlarni ism-familiyasini aytib turdi. Bir askar yigit ularni belgilagan vagonga joylashtira boshladi. Ikki o'tada yig'i-sig'i boshlanib, bir-birlariga yaxshi tilaklar bildirishdi. Poyezd qo'zg'alishi bilan askarlar vagon deralaridan uzoq qo'l silkitishib qolishdi. Poyezd uzoq ketgach, xalq tarqaldi.

Uyga kelsam, oyim:

– Kuzatib keldinglarmi? – dedi ma'yus holda.

– Odam ko'pmi?

– Stansiya kuzatuvchilarga to'lib ketgan. Oyi, boyta aytaman, devdim. Sayfullo o'rtog'imni otasidan xat keldi. Uni o'qib, uydagilar xursand bo'lib o'tirishibdi. Xavotir olmanglar, bizning armiyamiz juda kuchli. Har kuni fashistlardan shahar va qishloqlarimizni ozod qilyapmiz. Hademay g'alaba kuni ham bo'lib qoladi. Ko'chamizdagি Toshpo'lat otaning Soib degan o'g'li bizning qismimizda jang qilyapti. U juda ham mard yigit. Uni ham menga o'xshab 4 ta medali bor.


Oyimni ko'zlaridan yosh tirqiradi.

– Oyi, xavotir olmang. Akam jang bilan bo'lib, xat yozolmayapgandirlar. Mana ko'rasiz, hammasi yaxshi bo'ladi.

*(Tamom. Qolgan qismini
kitob holida o'qiysiz).*

BO'SH OTIRMAY, BOSH QOTIR!

IBRATLI MAQOL



Oddiy krossvord-boshlang'ich anavordning javob so'zlarini markazga yo'naltirib yozsangiz, belgilangan aylanma kataklarida ibratli maqolni o'qish mumkin bo'ladi.

1. Eng yaxshi, a'lo. 2. Pulning boshqa bir ma'nosi. 3. Yengil va sho'x ashula. 4. Suv jonivori. 5. Bاليق turi. 6. Meva yoki daraxt. 7. Biror ishni bajara olish, eplash. 8. Emansimon, sershox katta daraxt. 9. Uka va singilga aka

nisbatan kelinoyi. 10. Tibbiyotda suyak kasalligi atamasi. 11. Farg'ona vodisidagi tuman. 12. Xamirli suyuq taom. 13. Ko'rpaning tashqi va ichki qavati. 14. Echkining erkagi. 15. Tinch okeanidagi orol. 16. Musiqa belgilar daftari. 17. Qora dengiz bo'yidagi sihatgoh shahar. 18. Bir-ikki yoshlik buzoq. 19. Italiyadagi daryo. 20. Bir nav, o'tsimon o'simlik, ziravor.

Anvar MIRZAZODA tuzdi.

15-son, 2025-yilda e'lon qilingan «O'ZBEKISTON SIRKI» aylanma krossvordining javoblari:

Belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida: 1. Huqqaboz. 2. Morboz. 3. Akrobat. 4. Tandem. 5. Chavandoz. 6. Yusupov. 7. «Besuyak». 8. Tramplin. 9. Lochin. 10. Toshkent. 11. Manej. 12. Mansurov.

KRIPTOGRAMMA. Kalit so'zlar: 1. Germaniya. 2. Dor. 3. Akrobatika. 4. Tosh. 5. Narvon.

Aylanada: Toshkanboy Egamberdiyev.

SAYHUNOBODLIK MUALLIM

*O'qituvchilar oilasida
dunyoga kelgan Shuhratni goh
otasi yetaklab o'zi bilan matabga olib
borsa, ba'zan uyda bolasining yolg'iz
qolishidan xavotirga tushgan ona sinf
bolalariga qo'shib dars o'tgan
kunlari ham ko'p bo'lgan...*

va oliyohni tamomlab, ustozining maktabida o'qituvchi bo'lib ish boshladi. Yana bir shogirdi, 11-sinf o'quvchisi Anora Ahmedova joriy o'quv yilida fan olimpiadasida salmoqli natijani qo'lga kiritdi. Ha, ustozning muvaffaqiyatlari bisyor.
– Haqiqiy pedagog fanining yetuk bilimdoni bo'libgina qolmay, bolalarni

faoliyat yuritadi. Azizjon esa maktabda fizikadan saboq beradi. Yagona qiz – Ro'zigul boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Kenjatoy Damir 11-sinf bitiruvchisi.

– Kelajakda amalga oshiradigan ishlarim ko'p – deydi suhbatdoshimiz. Umrining yarim asrini yashab o'tayotgan Shuhrat akaga ezgu niyatları amalga oshishiga ishonamiz! Umrингиз узоқ bo'lsin, ustoz!

Nurbek QIDIRALIYEV

MAKTABIMIZ TEATRI

Maktabimizda tashkil etilgan «Turon» drama to'garagida sevimli yozuvchi va dramaturglarimizdan Said Ahmadning «Ufq» romanidan «Qochoq» hikoyasi, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asaridan «Bobur va Xonzodabegim suhbat», «Humoyunning xastalanishi» sahnasi, G'afur G'ulomning «Shum bola» asaridan sahna ko'rinishlari o'quvchilar tomonidan ijro etildi.



To'garak rahbari Dilbar opa Sherboyeva boshchiligidagi Parvez Ibragimov, Dilroz Ishmo'minova, Sunnat Norqulov, Sarvar Ishmo'minov, Shohjahon Allamurodov kabi faol ishtirokchilar mahoratlarini namoyish etishmoqda.

**Sevinch ZARIPOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'i
tumanidagi 9-umumta'lim
maktabining 8-«A» sinf
o'quvchisi**



Oila boshlig'i Sharif aka matematikadan dars bersa, Halima opa boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisi bo'lishgan. Shuhrat aka Azizov bolaligi haqida so'z ketganda, kun bo'yli maktabda bo'lgan ota-onasining ertangi kun darslariga tayyorgarlik ko'rishlarini eslaydi. Pedagogikaga mehr ham ota-onasidan o'tgan.

Xo'jand davlat universitetini tamomlagan Shuhrat aka, 30 yildirki, Sirdaryo viloyati, Sayhunobod tumanidagi 34-umumta'lim maktabida chizmachilik va tasviriy san'at, mehnat ta'limi fanlaridan yoshlarga saboq berib kelmoqda. E'tiborlisi, tumanda chizmachilik va tasviriy san'at fanlaridan ikki nafar oliy toifali o'qituvchi bo'lsa, biri Shuhrat Azizovdir.

Muallimning shogirdlaridan viloyat olimpiadalarida g'oliblikni qo'nga kiritgan Mohtoboy Qahhor-

sevishi kerak! – deydi Shuhrat aka. – Dars jarayonida menga umid bilan termilib turgan qora ko'zlarning har biri uchun javobgar ekanligimni, mavzuni o'zlashtirmagan bitta o'quvchi borligini his etsam, o'sha dars soatidan ko'nglim to'lmaydi...

Haqiqiy o'qituvchilargina shunday fikrlaydi. Suhbat davomida qahramonimizning naqadar yusak qalb egasi ekanini, maktabga, bolalarga bo'lgan mehri har qanday maqsadlardan ustun ekaniga amin bo'ldik. Ustozning samarali mehnati qadrlanib, joriy o'quv yilida «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Oila bekasi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulgunoy opa har ishda Shuhrat akaga hamnafas. To'ng'ich o'g'li Daler universitetning filologiya yo'nalishini tamomlab, nufuzli gazetada muxbir bo'lib



21-aprel 2025-yil

«Suratlarda Vatan madhi»

TONG YULDUZI

TANLOVIGA



Feruza BOTIROVA,
5-sinf o'quvchisi



Zulfiya
XOLMAMATOVA,
4-sinf o'quvchisi



Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Hilola UMAROVA,
Farhod BOQIYEV,
Abdusaid KO'CHIMOV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Feruza JALIOVA,
Nurbek QIDIRALIYEV
(Bosh muharrir o'rbinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi:
Nodira NAZAROVA
Rassom:
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner:
Shaxobiddin MAXMADIYEV
Musahhih:
Nargiza ABDULLAYEVA

**«Azmir Nashr Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik ijhatidan sifatli chop etilishiga bosmaxona ma'sul.
Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.
Obuna indeksi: 198.
Adadi - 4623. Buyurtma - .**

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mullaliifarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirigan taskilot javobgar.
Shakl A-4, 2 bosma taboq.
Bahosi kehsilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqt - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08

Tong yulduzi
Vatan vazirlari, Vatan boshchisi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Bosh muharrir:
Feruza ADILOVA